


**Xorazm viloyatida
bajarilgan qurilish ishlari**

2026-yil yanvar oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari*
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari*
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti*
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar*

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar oylarida Xorazm viloyatida jami 540,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,4 % ni tashkil etdi.



Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	540,0	115,4
Urganch sh.	51,0	112,6
Xiva sh.	12,9	77,1
Bog'ot	17,2	132,1
Gurlan	19,9	137,3
Qo'shko'pir	21,2	143,2
Urganch	60,3	234,1
Hazorasp	20,9	106,4
Tuproqqal'a	6,4	56,8
Xonqa	21,3	72,0
Xiva	25,3	102,7
Shovot	23,8	137,6


Yangiariq	13,4	101,9
Yangibozor	20,4	130,9
Mavzuga doir ko'rsatkichlar: Qurilish ishlari hajmi (oylik) Qurilish ishlari hajmi (yillik)		

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 78,9 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,6 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 131,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,5 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 114,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	16,1	43,5	
<i>o'sish sur'ati, %</i>	8,2 m.	161,5	
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	92,2	56,6	13,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	115,3	116,0	115,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	318,0		
<i>o'sish sur'ati, %</i>	106,5		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 59,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,1 marta ko'payib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,8 % ga oshdi va 11,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 30,1 % i to'g'ri kelib, qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil etgani holda 162,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 58,9% ni yoki 318,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ni tashkil etdi.

**Korxona turlari bo'yicha bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor
Xorazm viloyati	59,6	162,4	318,0	206,2	115,5	106,5
Urganch sh.	10,3	28,8	11,9	109,9	122,0	96,6
Xiva sh.	2,1	5,1	5,7	5,3 m.	42,0	135,4
Bog'ot	7,9	2,4	6,9	9,4 m.	53,1	90,2
Gurlan	0,8	11,4	7,8	3,0 m.	2,3 m.	83,7
Qo'shko'pir	1,3	13,0	6,9	6,7 m.	187,0	90,1
Urganch	13,5	31,8	15,1	18,8 m.	189,9	181,4
Hazorasp	0,6	8,0	12,2	3,4 m.	66,7	166,1
Tuproqqal'a	2,1	1,1	3,2	18,6 m.	24,9	48,6
Xonqa	0,9	6,8	13,6	6,5	182,2	106,9
Xiva	12,3	8,2	4,8	48,9 m.	48,6	64,1
Shovot	1,2	15,5	7,1	4,2 m.	147,5	109,0
Yangiariq	0,5	7,3	5,6	169,6	129,4	77,3
Yangibozor	2,1	12,1	6,2	1201,1	140,5	91,2

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 48,9 m.), Bog'ot tumani (18,8 m.) va Tuproqqal'a tumanida (18,6 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Gurlan tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,3 m.), Xiva tumanida (189,9 %) va Qo'shko'pir tumanida (187,0 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

B. Tillayev
62 227-77-88 (9020)

Manzil:

